



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLARINI EKOLOGIYAGA BO'LGAN MUNOSABATINI O'ZGARTIRISH

Raimov Sardor Ravshanovich

Toshkent Shahar Yuridik tehnikasi, 1-bosqich 03-02 guruh, Sud-huquqiy

faoliyati o'quvchisi

+998943758477

ra1movsardor3112@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada ekologiyani himoya qilishda faqat davlat emas, balki jamiyatning ham faolligi muhimligi ta'kidlanadi. EcoApp.uz ekotizimi orqali fuqarolarni rag'bat, texnologiya va qonun yordamida ekologik nazoratchiga aylantirish taklif qilinadi. Maqsad — ekologik qoidabuzarliklarni kamaytirish va jamiyatda eco-faollikni oshirish. Yoshlarni ekologiyaga bo'lgan munosabatini o'zgartirish.*

Kalit so'zlar: *Ekologiya, Nazorat, Qoidabuzarlik, Rag'bat, Texnologiya, Qonun, Jamoatchilik, Chiqindi, Eco-tizim, Ta'lim*

KIRISH

Agar har bir fuqaro majburlangani uchun emas, balki rag'bat, texnologiya va qonun orqali ekologik nazoratchiga aylansa — nima bo'lardi? Ushbu maqola aynan shu savolga javob beradi. Biz ekologiyani faqat davlat emas, balki jamiyat bilan birga himoya qiladigan tizimni taklif qilamiz.

Muammo – ekologik yemirilish. Bugungi kunda ekologik muammolar butun dunyo bo'ylab tobora tezlashib bormoqda. Havoning ifloslanishi, noqonuniy chiqindi tashlash, yashil hududlarning yo'qolishi — bular endi alohida holatlar emas, balki tizimli muammolardir. Ko'plab davlatlarda ekologiyaga oid qonunlar mavjud, biroq nazorat yetarli emas, jamoatchilik ishtiroki past, javobgarlik esa sust. Natijada ekologiya zarar ko'radi, jamiyat esa faqat tomoshabin bo'lib qolmoqda.

ASOSIY QISM

Asosiy uch muammo. Ushbu holatning uchta asosiy sababi mavjud.

Birinchidan, ko'plab ekologik qoidabuzarliklar umuman xabar qilinmaydi. Odamlar qayerga murojaat qilishni bilmaydi yoki tizimga ishonmaydi.

Ikkinchidan, fuqarolarda motivatsiya mavjud emas. Ular vaqt sarflaydi, xavotir oladi, biroq buning evaziga hech qanday manfaat olmaydi.

Uchinchidan, jazolar kuchsiz. Kichik jarimalar katta ekologik zarar yetkazayotganlarni to'xtata olmaydi.

Xalqaro tajriba. Bu g'oya nazariya emas — u dunyo miqyosida amalda ishlamoqda. BMT ekologiya sohasida jamoatchilik ishtirokini²² ustuvor yo'nalish deb

²² www.unep.org



biladi. Yevropa Ittifoqi raqamli monitoring tizimlaridan foydalanadi. Jahon banki rag‘batga asoslangan tizimlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, Singapurda ekologik jarimalar 1000 AQSh dollarigacha yetadi. Dubayda ekologiya sohasida nol bag‘rikenglik siyosati amal qiladi. Yaponiya ekologik intizom modeli hisoblanadi. Yaponiyada chiqindilar qat‘iy saralanadi: yuviladi, quritiladi va faqat belgilangan joylarga tashlanadi. Qoidalarga rioya qilinmasa, chiqindilar olib ketilmaydi. Bir martalik mahsulotlar o‘rniga ko‘p martalik idishlar qo‘llaniladi, bu esa chiqindilar hajmini sezilarli darajada kamaytiradi. Shveysariyada chiqindilarni saralamaslik jarima bilan jazolanadi, toza ichimlik suvi tizimi va ekologik transport rivojlangan. Natijada dunyodagi eng toza muhitlardan biri shakllangan. Shvetsiyada chiqindilarning deyarli 100 foizi qayta ishlanadi, chiqindidan elektr va issiqlik energiyasi olinadi, plastik pakatlardan foydalanish cheklangan. Natijada chiqindi poligonlari deyarli mavjud emas. Yaponiya, Shveysariya va Shvetsiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ekologik barqarorlik qat‘iy qoidalar, kuchli nazorat va fuqarolarning kundalik intizomi orqali ta‘minlanadi. Chiqindilarni to‘g‘ri saralash va qayta ishlash ekologik muammolarni kamaytirishning eng samarali mexanizmlaridan biridir.

Maqsad – VISION: OKR va SMART maqsadlar. Biz taklif qilayotgan model aniq maqsadlarga ega. Jumladan, ekologik qoidabuzarliklar haqida xabar berish ko‘rsatkichini 40 foizga oshirish, mahalliy ekologik jinoyatlarni 25 foizga kamaytirish hamda yoshlarning kamida 80 foizini eco-faollikka jalb qilish. Ushbu maqsadlar SMART texnologiyasi asosida belgilangan bo‘lib, ular o‘lchanadigan, real va vaqt bilan bog‘langan.

Yechim – ECO-DIGITAL EKOTIZIM Bugungi kunda ekologiya sohasidagi muammo g‘oya yetishmasligida emas, balki mavjud tashabbuslarning yagona va ishlaydigan tizimga birlashtirilmaganidadir. Hozirgi tizimda ekologiyani asrash mas‘uliyati asosan davlat zimmasida qolmoqda. Inspektorlar soni cheklangan, hududlar esa juda katta. Natijada ko‘plab ekologik huquqbuzarliklar o‘z vaqtida aniqlanmaydi, xabar qilinmaydi va jazolanmasdan qolib ketmoqda.

EcoApp.uz — bu bitta ilova emas, balki to‘liq ekotizimdir.

EcoGuard — qoidabuzarliklar haqida xabar berish tizimi bo‘lib, fuqaro qoidabuzarlikni oson va maxfiy tarzda xabar qiladi. Jarayon shaffof bo‘ladi, natijalar raqamlar orqali o‘lchanadi. Undirilgan jarimaning 20–30 foizi cashback sifatida qaytariladi, takroriy qoidabuzarlarga qat‘iyroq jazo belgilanadi, yirik qoidabuzarlar ochiq e‘lon qilinadi. Asosiy tamoyil — qo‘rquv emas, manfaat. EcoTruck — yo‘llardagi ekologik huquqbuzarliklar, EcoBank — green cashback, EcoTaxi — elektron taksi, EcoEdu — ekologik ta‘lim, EcoPass — ekologik xulq-atvor reytingi.

Kuchli qonun + texnologiya + rag‘bat + mas‘uliyat = barqaror muhit.

Takliflar 1. Xalqaro tajribaga tayangan holda yaratildi, ya‘ni O‘zbekiston plastik pakatlardan foydalanishni kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlab elektr energiyasiga



aylantirish hamda obodonlashtirish xodimlarining oylik maoshlarini oshirish taklif etiladi. Masalan, obodonlashtirish xodimlariga qo'shimcha imtiyozlar (qo'shimcha pul mukofoti, sovg'alar va dam olish maskanlariga yo'llanmalar) berilishi mumkin.

2. O'zbekistonda EcoEdu tizimini yo'lga qo'yish, ya'ni hozirda o'quv muassasalarida (bolalar bog'chasi, maktab, o'rta maxsus hamda oliy ta'lim muassasalarida) Eco-ta'lim dasturini ishlab chiqish va uni yo'lga qo'yish. Bu dastur bo'yicha muntazam ravishda bolalar uchun darslar, o'qituvchilar uchun malaka oshirishga shart-sharoitlar yaratish. Faol o'quvchi va o'qituvchilar uchun muntazam ravishda rag'batlar joriy etish (bolalar uchun oromgohlarga tekin yo'llanma, asosan ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga beriladi). O'qituvchilar uchun maxsus yo'llanma (sanatoriyaga, dam olish uchun yo'llanma) va shunga o'xshash boshqa imtiyozlar. Bular asosan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni eco-faollikka yoshligidan jalb qilish hamda ularning ishonchini qozonish uchun ishlatiladi

3. Hozirda poytaxtimiz Toshkent shahrida 2026-yil 1-yanvardan²³ boshlab avtomobillar ecostiker (yashil, sariq va qizil ecostikerlar²⁴) bilan harakatlanishi tajriba-sinov tariqasida ishlamoqda. Hozirda yurtimiz hududida eski avtomobillardan foydalanishga ham bir qancha ta'qiqlar tushmoqda²⁵. Bu ekologiya sohasiga juda katta foyda keltirmoqda. Aholining 25–35% i esa elektromobillardan foydalanmoqda. Lekin bu ko'rsatkichlar juda past. O'zbekistonda elektromobillarni ko'paytirish ham ekologiya sohasida tubdan burilishni yaratadi, desak ham adashmagan bo'lamiz. Buning uchun avvalo fuqarolarda elektromobillarga bo'lgan qiziqishni uyg'otish zarur. Masalan, elektromobil haydovchilariga bir qancha imtiyozlar (soliq chegirmalari, davlat bojidan ozod qilish) va shunga o'xshash boshqa qulayliklar yaratish aholi orasida elektromobillarga bo'lgan qiziqishni uyg'otishi bejiz emas.

4. Eng so'ngisi, eng dolzarb mavzu hisoblangan issiqxonalar (ya'ni teplitsiyalar). Hozirda juda ko'plab issiqxonalar mavjud. Ushbu issiqxonalar har xil zararli moddalarni yoqish natijasida havoga zararli tutunlar chiqarib, ekologiyaga zarar yetkazmoqda. Bu zararli tutunlar nafaqat ekologiyaga, balki inson hayotiga ham zarar solmoqda. Ushbu holatni oldini olish uchun ekologiya nazoratini kuchaytirish zarur. Issiqxonalarni zamonaviy talabga javob beradigan holatga keltirish taklif qilinadi. Ushbu holatni amalga oshirish uchun issiqxona faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarga maxsus imtiyozlar (soliqlardan chegirmalar va boshqalar) va shunga o'xshash boshqa shart-sharoitlar yaratish kerak.

²³ Avtotransport vositalarining atmosfera havosiga zararli ta'sirini kamaytirish maqsadida "Ekologik transport" tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-noyabrdagi 750-son qarori, 2-bandi

²⁴ Avtotransport vositalarining atmosfera havosiga zararli ta'sirini kamaytirish maqsadida "Ekologik transport" tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-noyabrdagi 750-son qarori, 1-bandi 4-qismi

²⁵ Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasini raqamlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 20-yanvardagi 11-son qarori, 1-bandi "b" kichik bandi



Xulosa qilib aytsak, yoshlarning 80 foizida ekologik ong shakllanadi, chiqindilar kamayadi, havo tozalanadi va chiqindi poligonlar qisqaradi. Natijada biz ekologik madaniyatni majburlash orqali emas, balki rag‘bat orqali shakllantirish lozim. Ekologik madaniyatni oshirish — bu kelajakni barpo etish demakdir. Qonun yo‘l ochadi. Rag‘bat xulqni o‘zgartiradi. Texnologiya shaffoflik yaratadi. Yoshlar esa barqaror kelajakni quradi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. www.unep.org
2. Avtotransport vositalarining atmosfera havosiga zararli ta‘sirini kamaytirish maqsadida “Ekologik transport” tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-noyabrdagi 750-son qarori.
3. Atmosfera havosiga transport vositalarining salbiy ta‘sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 29-martdagi 166-son qarori.
4. Yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash sohasini raqamlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 20-yanvardagi 11-son qarori.